№ 3-AMALIY MASHG‘ULOT



MICROSOFT POWERPOINT DASTURIDA ISHLASH.

Ishning maqsadi *dasturida multimediali taqdimot yaratish va loyihalash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.*

Vazifalar:

1. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta’minlash.

2. mavzuni yoritishda lozim bo‘ladigan dasturiy ilovalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

3. ta’limiy o‘yinlar va interaktiv dasturiy ilovalardan foydalangan holda talabalarning mashg‘ulotga qiziqishlarini oshirish;

4. internetdan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini o‘rgatish.

O‘quv vositalari: *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

Qisqacha nazariy ma’lumot

Microsoft PowerPoint – universal, imkoniyatlari keng bo’lgan, ko’rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Slayd – ma]lum bir ulchamga ega bo’lgan muloqot varaqlari xisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.

Taqdimot – yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish etish uchun beriladigan fayl nomi.

Animatsiya – bu slaydlarni namoyish qilish va ko‘rsatishda ularni samaradorligini oshiruvchi tovush, rang, matn va harakatlanuvchi effektlar yig‘indisidan iborat.

Taqdimot namoyishi – bu ushbu dastur yordamida yaratilgan, bitta faylda saqlanuvchi va ularni ko‘rsatishni ekranda amalga oshiriladigan slaydlar va maxsus

effektlar to‘plamdan iborat bo‘lib, tarqatma material, ma’ruza rejasi yoki konspekt shaklida bo‘lishi mumkin.

Taqdimotlarni **uchta toifaga** ajratish mumkin: *interaktiv, skriptli va uzluksiz davom etuvchi (ishlovchi).*

Interfaol taqdimot – bu foydalanuvchi bilan kompyuter o‘rtasidagi muloqot.

Ssenariy bilan taqdimot (*skriptli)* – taqdimotchi nazorati ostida slaydlarni namoyish qilishni anglatadi.

Doimiy ravishda (to‘xtovsiz) ishlaydigan taqdimotlar. Ular foydalanuvchi tomonidan boshqarilmaydi. Bunday o‘zini-o‘zi bajariladigan taqdimotlardan odatda turli ko‘rgazmalarni tashkil etishda foydalaniladi.

Mashg‘ulot rejasi:

1. **Kirish qismi** *(5 daqiqa)***:**
   1.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;
   1.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.
2. **Asosiy qism** *(30 daqiqa)*:
   2.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;
   2.2. tug‘ilgan savollarga javob berish;
3. **Yakuniy qism** *(10 daqiqa)*:
   3.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;
   3.2. talabalarni rajbatlantirish;
   3.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.
   3.4. mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot jarayoni:

Mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

Har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratib berish;

Talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuter va kompyuter dasturlarining ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Ms. Office dasturini o‘rganish mavzusi yuzasidan 8-ta slayddan iborat bo‘lgan taqdimot yarating.

Taqdimotni quyidagi tuzilishda yarating:

1-slayd – titul slaydi;

2-slayd – mundarija;

3, 4, 5, 6-slaydlar Ms. Office dasturiy ilovalarini *(Ms. Word, Ms. Excel, Ms. PowerPoint)* yoritishga bajishlanadi;

7-slaydda taqdimot yaratishda axborot almashinuvining blok-sxemasi yoritiladi;

8-slayd – rezyume.

2-topshiriq. “Zamonaviy axborot texnologiyalari” mavzusida 8-ta slayddan iborat bo‘lgan taqdimot yarating. Taqmot tuzilishini yaratishda 1-topshiriq namunasidan foydalaning. Bunda matn, rasm, shakl, animatsiya va havolalardan foydalaning.

3-topshiriq. Quyidagi taqdimot ko‘rinishlarini bittadan slayddan foydalangan holda yarating.





AMALIY MASHG‘ULOT



MS. POWERPOINT DASTURI YORDAMIDA DARSLARGA KO‘RGAZMALI QUROLLARNI TAYYORLASH

Ishning maqsadi *ko‘rgazmali qurollarni yaratishda triggerdan foydalanishni o‘rgatish.*

Vazifalar:

5. talabalarga mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yetkazishni ta’minlash.

6. mavzuni yoritishda lozim bo‘ladigan dasturiy ilovalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

7. ta’limiy o‘yinlar va interaktiv dasturiy ilovalardan foydalangan holda talabalarning mashg‘ulotga qiziqishlarini oshirish;

8. internetdan ta’limiy maqsadlarda foydalanishning asosiy qoidalarini o‘rgatish.

O‘quv vositalari: *shaxsiy kompyuter, multimediali proektor, ekran, LCD monitor,markerlar, ish daftari, tarqatma materiallar.*

Qisqacha nazariy ma’lumot

Microsoft PowerPoint dasturi Microsoft firmasining Windows qobigi ostida yaratilgan bo’lib, ushbu dastur taqdimotlar bilan ishlash uchun eng qulay bo’lgan dasturiy vositalardan biridir. Bu dastur orqali barcha ko’rgazmali qurollarni yaratish va ba’zi joylarda esa ma’lumotlar bazasi sifatida ham foydalanish mumkin. Ayrim hollarda bu dasturdan multimedia vositalarini boshqarish va ularni qo’llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini bajarish ham mumkin.

Microsoft PowerPoint – universal, imkoniyatlari keng bo’lgan, ko’rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Ko’rgazmani tashkil etish – slaydlar ketma-ketligini loyihalash va jihozlash demakdir.

Microsoft PowerPoint – bu grafik dasturlar paketi bo‘lib, elektron slaydlarni tayyorlash, ular bilan tanishishni uyushtirish va slaydli filmlarni namoyish etishga yordam beradi.

Yangi taqdimotni yaratishda PowerPoint dasturining asosiy oynasidagi Gorizontal menyuning «Файл» – «Создать» buyruqlari ketma-ketligi tanlanadi. Bu buyruqlar bajarilgandan so‘ng « Создать презентатсию » muloqot darchasi namoyon bo‘ladi.

Mashg‘ulot rejasi:

4. **Kirish qismi** *(5 daqiqa)***:**
   4.1. talabalar bilan salomlashish va mashg‘ulot mavzusini e’lon qilish;
   4.2. amaliy mashg‘ulotni bajarish yuzasidan qisqa suhbat o‘tkazish.
5. **Asosiy qism** *(30 daqiqa)*:
   5.1. talabalarning ish faoliyatini kuzatib borish;
   5.2. tug‘ilgan savollarga javob berish;
6. **Yakuniy qism** *(10 daqiqa)*:
   6.1. talabalar ishlarini tekshirish va muhokama qilish;
   6.2. talabalarni rajbatlantirish;
   6.3. talabalar uchun uy vazifalarini berish.
   6.4. mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot jarayoni:

Mashg‘ulot davomida talabalar faolligini oshirish uchun turli interaktiv usullardan foydalanish;

Har bir talabaga kompyuter bilan ishlash imkoniyatini yaratib berish;

Talabalarning mashg‘ulotga qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga erishish.

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Mashg‘ulotni o‘tkazishdan oldin kompyuter va kompyuter dasturlarining ishga tayyorligini tekshirish talab etiladi. Talabalarning bilim darajalari hisobga olgan holda topshiriqlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Talabalarga axborot xavfsizligi qoidalari haqida qisqacha ma’lumot berish lozim.

Ushbu ishlanma “Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalari” fanidan foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Topshiriqlar:

1-topshiriq. Ms. PowerPoint dasturida 10 ta slayddan iborat bo‘lgan “Ona tili” fanini o‘qitishga qaratilgan o‘rgatuvchi taqdimot yarating. Bunda triggerdan foydalaning.

Taqdimotni quyidagi tuzilishda yarating:

1-slayd – titul slaydi;

2-slayd – mundarija;

3, 4, 5, 6, 7, 8, 9-o‘rgatuvchi taqdimotga tegishli slaydlar;

10-slayd – Xulosa.

2-topshiriq. Ms. PowerPoint dasturida 10 ta slayddan iborat bo‘lgan “Matematika” faniga oid o‘rgatuvchi taqdimot yarating. Bunda triggerdan foydalaning.

3-topshiriq. Ms. PowerPoint dasturida 10 ta slayddan iborat bo‘lgan “Texnologiya” faniga oid o‘rgatuvchi taqdimot yarating. Bunda triggerdan foydalaning.

4-topshiriq. Quyidagi taqdimot ko‘rinishlarini bittadan slayddan foydalangan holda yarating. Slayddagi har bir elementga triggerni birlashtiring.

